

Sharipova Kamola*Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika va Psixologiya yo'naliishi**1 - kurs MM -1PP 22 - guruh magistr talabasi*

Annotatsiya: *Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Maqolada Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lism tizimida o'qitish masalalariga e'tibor berish. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari tamoyillarini tasniflash hamda inklyuziv ta'lim asoslari haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, bolalar, nogironlar, maxsus ta'lim, psixolo-pedagogik, nogironligi bo'lgan yoshlar, mакtab, maxsus ta'lim, ehtiyoj.*

Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lism muasasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lism maktablarining katta bo'limgan qismlari sifatida faoliyat yuritadi. Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek ularning o'z oilasidan uzoqda bo'lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limidan chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lism tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi Qonunning II bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor(sezgi) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiyl o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlariga inklyuziv shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda ta'lim oladi".

Inklyuziv ta'lim haqida so'z yuritilganda, uning asl mohiyatini nimaga qaratilayotgani haqida so'z boradi. O'zi Inklyuziv ta'lim nima? "Inklyuziv ta'lim" bu (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion uyg'unlashmoq, uyg'unlashirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi). Nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko'ra imkoniyati chelangan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lism jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integrasiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejalarini tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga

qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlarini xohlagan mактабда o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Demak, uning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart. Inklyuziv ta'limda maktabdagи jismoniy sharoit ham katta o'rinni tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, barcha maktablar eshigiga o'quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan nogiron bolalar ko'tarila olmaydilar, hatto qo'ltiqtayoqda yuradigan bolalar ham, qiynalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham, eshiklardan ham sog'gom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bemalol o'tishlari uchun qulay sharoit yaratilishi shart. Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi. Bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo'lgan iternatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to'sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-onada mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir. Inklyuziv ta'lim ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Inklyuziv ta'lim rasmiy ta'lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta'limda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv maktab o'qituvchisi va inklyuziv bog'chada tarbiyachi qanday sifatlarga ega bo'lish kerak? Inklyuziv ta'limda o'qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo O'qituvchi inklyuziv tafakkurga ega bo'lishi va ta'lim sifati mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi shart. Inklyuziv ta'lim berish o'qituvchilar ishi sifatining asosiy mezonlari - o'qituvchi o'quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi. Yana bir sifat - hamkorlikni yo'lga qo'yish. Chunki o'qituvchilar uchun hamkorlik va o'zaro fikr almashish muhimdir. O'qituvchi o'z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalar aro guruhrilar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruvalar malakalarini qo'llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamrovli maktab hamkorligini yo'lga qo'yish kabi xislatlarga ega bo'lish kerak. Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhshtiriladi.

Inklyuziv ta'lim tizimida qo'yidagi maqsad va vaziflarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixolo-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagи tenglik xuquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'gom bolalarning ixtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oiladan ajramagan holda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta'limning prinsiplari:

1. Insonning qadr qimmati, uning qobiliyati va yutug'iga bog'liq emas.

2. Har bir inson o'yash va xis qilish qobiliyatiga ega.
3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega.
4. Har bir kishi bir\biriga muxtoj.
5. Shaxsning to'liq va haqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.
6. Hamma kishilar o'z tengdoshlarini qo'llab quvvatlashga muxtoj.
7. Hamma ta'lim oluvchilarni yutuqga erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas , balki nimanidir qila olishidir.
8. Hamkorlik qilish kishi haётini har tomonlama ko'chaytiradi.

Inklyuziv ta'lim tizimi qo'yidagi ta'lim muassasalarni o'z ichiga oladi; maktabgacha umuta'lim, umu o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-xunar va oliy ta'lim. Bu ta'lim muassasalarning maqsadi bolalarning ta'lim olishi va kasb-xunarga tayेrlashda ularning o'rtasidagi to'siqlikni bartaraf etib ochiq ta'lim muxitini yaratishdan iborat. Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsiyalashgan ta'lim tizimidan uzinig mazmun - moxiyati, maqsadi, vazifalari va xarakat dasturi bilan farqlanadi.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz tomonidan viloyatlardagi maktablarda tashkil etilgan inklyuziv sinflar tajriba, sinov tariqasida o'z ish faoliyatlarini olib bormoqdalar. Inklyuziv ta'lim g'oyasini O'zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuotaxborot vositalari orqali targ'ibot- tashviqot ishlari bir muncha faollashdi. Jamiyatda nogironlarga nisbatan yanglish fikr va munosabat juda yuqoridadir. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularni yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim tarbiya berilishi bunga sababa bo'lishi mumkin. Bunday munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta'lim tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o'zlari singari bola ekanliklarni anglab, kasitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi. Bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri, yani ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan bog'liq, muhim vazifalar va tizimdag'i holat xususidagi masaladir. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, barcha sohalarda bo'lgani kabi, bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida ham chuqur islohotlar va o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiyl maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011
2. Xodjayev. B Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent-2017 (188bet)
3. „Ta'lim hamma uchun” Milliy dasturi rejasি Toshkent-2003
4. „Maktablar hamma uchun”- „ Bolalarni qutqaring jamg'armasi”-2002

5 IYUL / 2023 YIL / 31 – SON

5. „Ta'lif hamma uchun”- Dakar deklaratsiyasi-2002
6. Содиржонов М. Оилада инсон капитали ривожланишнинг социологик таҳлили //in Library. - 2023. - Т. 1. - №. 2. - С. 119-131.
7. Содиржонов М. Etnosotsiologiya-sotsiologik fanlar tizimida //in Library. - 2023. - Т. 1. - №. 2. - С. 530-534.